

O'YIN METODI NING BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA QO'LLANISHI

D.U.Abdushukurova, S.A.Rahmonova, N.T.Mamatova

Guliston shahar 2-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari,

maktab2*gul@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7549724>

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini zamonaviy o'yin texnologiyalar asosida tashkil etish, uni boshqa fanlar bilan integratsiyalash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, ta'limiy o'yin metodi, o'quv-tarbiya jarayonida fanlararo integratsiya.

Boshlang'ich sinflarda grammatik materialni o'rganish amaliy yo'nalishga ega bo'lgani va birinchi navbatda, o'quvchilarning nutqiy va aqliy rivojlanishiga xizmat qilgani uchun, bir til kategoriyasining boshqasiga tobeligini va bir-birini taqozo qilishini tushunish bilan birga, o'quvchilarning bu haqdagi bilimlaridan amaliy vazifalarni hal qilishda, ya'ni so'zlarni yozish, gap tuzish, so'zni tahlil qilishda foydalanishga o'rgatish ham muhimdir.

Maktabda tilning barcha tomonlari (talaffuzi, fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, so'z yasalishi)ni o'zaro bog'liq holda o'rganish ona tilini o'rgatishdagi yetakchi tamoyili bo'lib, uni amalga oshirish o'quvchilarning tilni murakkab, rivojlanuvchan, o'zaro bog'langan muhim tomonlarga ega bo'lgan hodisa sifatida anglab yetishlari uchun ilmiy asos yaratadi. Tilning mohiyatini bunday idrok etish hodisalarning rivojlanuvchanligi va o'zaro bog'langan qismlardan tuzilishini tushunishga zamin hozirlaydi.

Bugungi kunda fan va texnika rivojlanib, ta'lim tizimida keskin o'zgarishlar bo'lib turgan bir paytda shiddatli davr barcha pedagoglardan ta'lim va tarbiyani chambarchas bog'liqlikda muntazam olib borishni taqozo etmoqda. Chunki ma'naviyat yo'q ekan, inson ongli ijtimoiy shaxs bo'la olmaydi. Hozirgi globallashuv jarayonlari kuchaygan, turli g'oyalar o'rtasidagi kurash keskinlashgan, ommaviy madaniyat xurujlari butun dunyoga tarqalib borayotgan, internet tarmog'i orqali uzatilayotgan buzg'unchi axborotlar inson qalbi va ongini o'ziga qaram qilishga urinayotgan tahlikali zamonda kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash davlat siyosati darajasidagi masalaga aylangan.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini bizdan talab etadi. Inson shaxsining kamol topishi esa juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-

onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, internet, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi integratsiyalashgan ta'lim tizimida bu borada juda ko'p ishlar amalga oshirilishi ham shu maqsadni ko'zlaydi. Bugungi kunda odobnoma, milliy g'oya kabi fanlarning bir nom ostida birlashtirilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni o'z vaqtida olg'a surilgan islohotlardan biridir. Fan yuksalmoqda, raqobatbardoshlik, jahon satandartlariga moslik sari dadil odimlamoqdamiz. Har bir fanda fanlararo aloqadorlikka amal qilish ko'zda tutilmoqda.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini zamonaviy pedagogik texnologik yondashuvlar asosida tashkil etish borasida anchagina ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 3-sinf ona tili darslarida asosdosh so'zlar mavzusi biroz murakkab va o'quvchiga tushunish uchun qiyinchilik tug'diradi. Dars jarayonida asosdosh so'zlarni topish uchun bolalarbop turli o'yin metodlaridan foydalanish ancha yuqori samara beradi. Buning uchu turli shakldagi figuralar yoki hayvon, qush, manzarali daraxtlar rasmi shakli bilan har bir o'quvchini ta'minlab, undagi qaysidir qismida asosdosh so'zlar va bolani chalg'ituvchi xato so'zlarni yozib chiqamiz. O'quvchi ona tili darsida rangli qalamlardan foydalangan holda shu asosdosh deb bilgan qismlarni bo'yashi lozim bo'ladi.

Bunday – "O'yla, izla, top va bo'ya" o'yin metodi har bir bolaga estetik zavq bag'ishlashi bilan birga o'quvchidan ziyraklikni, topqirlikni talab etadi. So'zli qismni bo'yash jarayonida qo'l motorikasida ishqalanish jarayoni esa nutqiy ravonlikka ham sabab bo'ladi. Chunki bolaning nutqiy faoliyatini boshqaruvchi hujayralr ayni kaft qismida joylashgani buning asosidir. Ko'rinadiki, bugungi kunda joriy etilayotgan integratsiyalashgan ta'lim tizimi bir vaqtning o'zida bir necha fanlar hamkorligini yo'lga qo'ya olishi bilan talaygina yutuqlarga sabab bo'ladi. Bu esa davr talabidir.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni o'quvchilarning bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, ularning ilmiy dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, ijodiy izlanishlarini rivojlantirish maqsadida yo'g'rilgan o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi sanaladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ustoz va tahsil oluvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni tarkib toptirish uchun, avvalo, o'sha jarayonni insonparvarlahstirish, do'stona muhitni yaratishni taqozo etadi. Chunki har qanday jarayonni amalga oshirishda ustoz va o'quvchi o'rtasida iliq mehr, ishonch zarurligi tabiiy.

Yuqorida tilga olingan o'yin metodida juda tez fursatda bir vaqtning o'zida butun guruh bolalarini baholay olish mumkin. Qanday qilib? Ustoz qo'lida tarqatilgan har bir surat yoki manzaraning to'g'ri bajarilgan varianti mavjud bo'lib, bolalarga

namoyish etgan holda barchasi birdaniga baholanib boriladi. Bu vaqt tejamkorligiga, xatoga yo'l qo'yilgan holatda esa, uni izohlash, tushuntirib borilishi uchun bizga imkon beradi. Kamchilikka yo'l qo'yilgan holatlar bilan esa doskada qayta ishlanishi dars mavzusining to'la o'zlashtirilishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu mustaqil fikrlashi, dunyoni rangli tasavvur etishi, sevimli mashg'ulot orqali fanni o'zlashtirishga turtki bo'ladi.

REFERENCES:

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O`zbekiston, 2017.
2. O'zbek tilining izohli lug`ati. – Toshkent, Sharq nashriyot matbaa konsertni Bosh tahririyati, 2006.
3. Xalq ta'limi. Ilmiy-metodik jurnali. –T., 2018 yil, №6-son.
4. Boshlang'ich ta'lim. Ilmiy-metodik jurnal. 2021, 2022 –yil sonlari.
5. S. M. Ro'ziyeva. Boshlangich ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari. – Toshkent, 2012.